



ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Ortiqova Iqbola Olimboyevna

Xiva Prezident maktabi geografiya fani o'qituvchisi

Anotatsiya: Maqolada bir necha metodlar keltirilgan bu metodlardan barcha fanlarda samarali foydalansa bo'ladi. Mavzuga qarab o'quvchilarning, auditoriyaning holatidan kelib chiqib har bir darsimizga bu metodlarni to'laligicha yoki ayrim qismlariga qo'shimcha qilib darslarda qo'llash mumkin. Ayniqsa takrorlash darslarida chorak yakunida bu metodlarni mavzuga moslashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Maqolada metod va usullar haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Avtofokus metodi, kim g'olib, xotira mashqi, ustunchalar, muzyorar, portmanteau, raketa, 6-ta shlyapa metodi, kartochkalar, baliq ovi, 15-daqiqa, rasmlar bilan ishlash metodi

Sindagi zerikarli dars muhitining birinchi sabablaridan biri bu - o'quvchilarning diqqati pastligi, darsga befarqligi va dangasaligidir. Bunday vaziyatda asosiy mas'uliyat o'qituvchining bo'ynida bo'ladi. Qanday qilib bo'lsa ham o'quvchilarni darsga e'tiborini qarata olish kerak.

Bugungi Avtofokus metodi orqali o'quvchilarda ushbu muammolarni osonlikcha hal qila olasiz. Ushbu metod o'quvchilarning ixtiyoriy darsga e'tibor qaratishlarini ta'minlaydi.


Avfokus metodining asosiy mazmuni

Ushbu metodni qo'llashda sizga qizil va oq kartochkalar kerak bo'ladi. Sindagi o'quvchilarning har biriga ushbu kartochkalarni tarqatib chiqasiz. Albatta, buni dars boshida amalga oshirasiz.

So'ngra dars mobaynida to'satdan savol berib qolasiz, demak savollar quyidagicha:


- "Qizil kartochkasi borlar o'rnidan tursin" Va mavzu yuzasidan biror savolni turgan o'quvchilardan istalgan biriga berasiz. Javob topa olishsa, qizil kartochka guruhiga bir bal qo'shib qo'yasiz.

eyin yana dars davomida to'satdan oq kartochkasi borlar o'rnidan tursin deysiz va yuqoridagi kabi, oq kartochkasi bor o'quvchilardan istalganiga mavzu yuzasidan savol berasiz. Shu tartibda darsning so'ngigacha bir necha marotaba ushbu usulni qo'llaysiz.





2. "XOTIRA MASHQI" o'yini.



Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida, ayniqsa birinchi tanishuv darsida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin.

O'quvchi o'z ismini aytadi va shu ism bilan boshlanuvchi biror adib nomini aytadi.

Misol uchun, Adham – Alisher Navoiy, Bahodir – Zahiriddin Muhammad Bobur, Gavhar – Gulxaniy kabi.

Bu o'yinni mavzuga aloqador bo'lgan terminlarni misol qilib keltirish orqali ham olib borsa bo'ladi. Bunda o'quvchi miyasida mavzuning asosiy terminlari muhrlanib qoladi!



4. "KIM G'OLIB?" o'yini.

1-bosqich. Ushbu o'yin o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga undaydi. Asosiysi, o'quvchilar ham g'oliblik uchun, ham ko'proq bilim olish uchun kurashadilar.

2-bosqich. O'quvchilarni ikki guruhga bo'lasiz va nomlaysiz. Ularga o'tilgan mavzu yuzasidan ketma-ket ma'lumot aytishlarini aytasiz va tayyorgarlik ko'rishlari uchun ma'lum vaqt ajratasiz..


3-bosqich. Qaysi guruh a'zolari mavzu yuzasidan ko'proq va mazmunli ma'lumotlar aytgan bo'lsa g'olib deb e'lon qilasiz.

5. "USTUNCHALAR" o'yini.

Yaqin o'tgan mavzularni qayta xotirlash va mustahkamlash, chaqqonlik va tez fikrlay olish qobiliyatlarini o'stirish uchun ayni qo'l keluvchi o'yindir.

1-bosqich. O'quvchilar daftar varog'ini istagingizga qarab 2, 3, 4 yoki 5 ta ustunchaga bo'lishadi. Ustunchalar boshiga mavzu nomi yoziladi.

2-bosqich. Har bir ustunchaga belgilashingizga qarab 5 tadan yoki 7 tagacha mavzuga oid atama yozish kerak bo'ladi.





✓ Birinchi bajarib bo'lgan uch o'quvchini yozuv taxtasi (doska)ga taklif qilasiz. Ular barchasini to'g'ri va bexato bajarishgan bo'lsa qo'shimcha baho bilan siylashingiz mumkin.

6. TO'G'RI-NOTO'G'RI" o'yini.

O'qituvchilar savollarni an'anaviylikdan qochgan holda berishlari ham mumkin. Berilgan savolga o'quvchi faqat to'g'ri yoki noto'g'ri deb javob beradi.

Misol uchun: O'zbek tiliga davlat tili maqomi 1989- yil 21- oktabrda berilgan – to'g'ri.

7. "RAKETA" o'yini.



1-bosqich. Doskaga raketa rasmi chiziladi, yoki, uchta raketa yasab savollar yozilgan kartochkalar ilinadi.


2-bosqich. Raketa o'zga sayyoraga uchish uchun yuklardan xoli bo'lishi kerak. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Qaysi guruh a'zolari savollarga to'g'ri javob bersa kartochkalar olib tashlanadi.

3-bosqich. To'g'ri javob berilmagan kartochka raketada qoladi va u ucha olmaydi. Yangi mavzuni tushuntirish paytida raketa yetib brogan sayyoradan kelgan ma'lumotlar sifatida mavzu tushuntirilsa qiziqarliroq bo'ladi.

8. "BALIQ OVI" o'yini.



1-bosqich. Doskaning bir tomoniga dengiz rasmi, ikkinchi tomoniga akvarium rasmi tushiriladi.





2- bosqich. Dengizda baliqlar bo'ladi. O'quvchi dengizdagi baliqlardan birini tutib uni orqa qismidagi savollarga javob beradi.

3-bosqich. Javob to'g'ri bo'lsa baliqni akvariumga, noto'g'ri bo'lsa dengizga qo'yib yuboradi.

"6ta SHLYAPA" metodi

Ushbu texnikani o'tkazishda har xil rangdagi 6 ta bosh kiyimni 1 o'quvchining o'zi birma -bir "kiyishi" kerak.




Oq rangda - mavzudagi barcha faktlarni sinchkovlik bilan va xolis tekshirish topshirig'i bajariladi, qora rangda - kamchiliklarni topish, sariq rangda - afzalliklarni tahlil qilish, yashil rangda - bir nechta g'oyalarni berish va qizil rangda - hissiy munosabat bildirish va ko'k rangda - umumlashtirish kerak bo'ladi.

Avvalo, siz butun sinfga bugungi mavzuni 15 daqiqa to'liq tushuntirasiz. Mavzuning yodda saqlab qolish kerak bo'lgan qismlarini o'quvchilar daftariga yozdirishingiz kerak. Shundan so'ng, mavzuni mustahkamlash va o'quvchilar xotirasida butunlay qolib ketishi uchun ushbu metodni qo'llaysiz

Bu texnika o'quvchida bir vaqtning o'zida bitta mavzuga har xil tomondan yondoshuv taktikasini kuchaytiradi va o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatadi!

Masalan: Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursi 5-sinf uchun chiqarilgan atlas xaritasida o'quvchilar esda qolishi qiyin bo'lgan mavzu "Masofani ko'z bilan baholash" ya'ni "Ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan odam necha metr dan ko'ra oladi". Bu mavzuni rasmlarda aks ettirish metodikasi orqali o'quvchilarga oson o'rgatish mumkin.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Kreativ pedagog rasmiy kanali metodlari
- 2.5-sinf geografik Atlas -2017 yil
- 3.Kreativ pedagog metodlari

